

“KO‘HNA DUNYO” ROMANIDAGI TARIXIY VA BADIY HAQIQAT**Salomova Guljamol***Andijon davlat universiteti 2-bosqich magistri*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanidagi tarixiy va to‘qima obrazlarning romandagi ahamiyati, uning tarixiy asosi masalalari yoritilgan.*

Tayanch so‘zlar: *“Ko‘hna dunyo” romani, tarixiy va to‘qima obrazlar, tarixiy asos, tarixiy-biografik roman*

Odil Yoqubovning ko‘hna dunyo talotumlaridan hikoya qiluvchi bu romani tarixning ikki buyuk alloma – Ibn Sino va Beruniy yashagan davrini mahorat bilan aks ettirib bergan. Asar voqealari asosan muallif va Abu Ubayd al-Juzjoniyning tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi romanda davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini haqqoniy tasvirlash uchun bir qancha tarixiy shaxslar obrazidan foydalanadi. “Ko‘hna dunyo” romanidagi tarixiy shaxslar: ikki buyuk alloma Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy, Mahmud G‘aznaviy, sultonning vazirlari Abul Hasanak va Ali G‘arib, o‘g‘illari Amir Mas‘ud va shahzoda Muhammad, shohning suyukli singlisi Xatlibegim, buyuk shoir Abulqosim Firdavsiy, Hamadon hokimlari Shamsuddavla va Alouddavla, Ibn Sinoning shogirdi Abu Tohir Abu Ubayd, shoir Unsuriy va boshqalar.

Bizningcha, asarda qatnashgan tarixiy obrazlar bilan birga to‘qima obrazlarning ham har biri asar umumiy g‘oyasini ochib berishda muhim o‘rin egallagan. Romandagi eng yorqin to‘qima obraz Malikul Sharobni olaylik, u G‘aznada Malik-ash Sharob, avom orasida esa Malikul sharob nomi bilan mashhur. Asl ismi Qutlug‘ qadam bo‘lgan bu qalanadar bir vaqtlar sulton Mahmudning sodiq g‘ulomi bo‘lgan. Yoshlik yillarida raqqosa qiz Nargizabonu sabab bir umrlik dushmanga aylanishadi. U barcha devona-yu mayxo‘rlarni jamlagan g‘arib kulbasi – mayxonasi bilan butun poytaxtda mashhur. Asar voqealari ham shu sharobxona tasviri bilan boshlanadi. Romandagi mayxona tasviriga e‘tibor qarataylik:

“Lekin bu qashshoq kulbaning o‘ziga xos ohangrabosi bor – u mulla mirquruq shoirlar, “chiqitga chiqqan” xonanda va sozandalar, saroydan quvilgan munajjimlar, amirlar qahriga yo‘liqqan sarbozlar, qochqin g‘ulomlarning suyukli makoniga aylangan”.⁶ Shu o‘rinda savol tug‘iladi, aslida bu iste‘dod egalarining joyi qayerda edi? O‘z qobiliyatlarini rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan ilm dargohlaridami yoki may orqali ko‘ngillariga taskin topadigan sharobxo‘rlar orasidami? Eng qiziq tomoni bu dargohga Beruniyning ham o‘zi tashrif

⁶ Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. –Toshkent: Sharq, 2008. B. 5

buyurar, darveshlar bilan suhbatlashib ko‘ngli xiyol taskin topardi. Malikul Sharobning mayxonasi orqali o‘sha davridagi ilm-fan egalarining ayanchli ahvoli, qadr-qimmat topmaganligi ko‘rsatib berilgan.

Yana bir muhim badiiy to‘qima obraz Piri Bukriydir. Nay chalish bobida ustasi farang bu gurganchlik bukri attor salkam o‘n besh yildan buyon Malikul Sharobning mayxonasida attorlik qiladi. Piri Bukriy asarda ayg‘oqchi va fitnachi qiyofasida gavdalandi. U o‘z qabih niyatini amalga oshirish uchun uzoq yillik qadrtoni Malikul Sharobni xoinlikda ayblaydi. Salkam yigirma yilda mayxonada podshoyi olam va vazirlarning sha‘niga dog‘ tushiruvchi nimaiki fisqi fujur gap bo‘lgan bo‘lsa, hammasini bir kitobga jamlab vazirga topshiradi. Tole past bu Bukrining muhabbat bobidagi mojarolari ham har safar Beruniy bilan qarama-qarshi keladi. Yoshligida ustoz Abu Nasr Mansurning qizi Rayhonabonuga birining muhabbati, birining qabih niyati to‘qnash kelsa, umr pallasining so‘ngida har ikkalasining mehri Sadafbibiga tushadi. O‘n besh - o‘n olti yoshar bu joriyani Malikul Sharob qul bozoridan sotib oladi. Sadafbibining asl yurti Xorazmdan bo‘lib, uning chuchuk tili, shevasi har ikki “oshiq”ning e‘tiboriga tushadi. Voqealar so‘ngida Piri Bukrining qabih niyati Sadafbibining o‘limiga sabab bo‘ladi. Qalbi ham jismidek majruh bu obraz orqali hamma davr, hamma zamonda ham Beruniyday buyuk allamolarga hasadgo‘ylik qiluvchi, ularni ig‘vo yo‘li bilan bo‘lsa-da mag‘lub etishga tirishadigan kimsalarning umumiy obrazi yaratilgan. Bu obraz orqali o‘sha davrdagi saroy fitnalari, vazir-u vuzarolarning boylikka o‘chligi, haqiqiy ilm egalarining ta‘qib ostida ekanligi ham ko‘rsatib berilgan.

Bobo Xurmo (Bobo Savdoyi) obraziga to‘xtalsak, bu obraz ham to‘qimadir. Romanda kichik epizodik obrazlardan sanalsa-da, asarning g‘oyaviy pafosini kuchaytirish va xalqning o‘tmishdagi holatini ko‘rsatish uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Bobo Xurmo sulton zulmidan butun umr aziyat chekkan oddiy xalq vakili. Uning bir paytlar Mahmud G‘aznaviy qurdirgan olamga mashhur Bog‘i Feruz majmuasi o‘rnida katta xurmozori bo‘lgan. Bog‘ qurilishi uchun joy tanlanganda shohga o‘sha xurmozorning o‘rni ma‘qul tushadi va shu yerni davlat mulkiga qo‘shib oladi. Suyukli bog‘idan ayrilgan bog‘bon esa shu-shu xiyol savdayi bo‘lib qolib, ko‘chalarda tilanchilik qilib yuradi. Xalq orasida Bobo Xurmo haqida ajoyib naqlar ham paydo bo‘lgandi:

“Bobo Xurmo!

Qilg‘il duo,

Bergil xurmo! –”⁷

Bu naqlar ham Bobo Savdoyining og‘ir qismatini tasvirlovchi vositalardir. Bobo Xurmo Malikul Sharobning mayxonasida nodon shohlar haqida bir rivoyat aytadi. Rivoyatning qisqa

⁷ Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. –Toshkent: Sharq, 2008. B.11

mazmuni quyidagicha: “Qadim zamonlarda ikki ikki birodar safarga chiqadi. Yo‘lda biri ikkichisidan agar saodat yor bo‘lib, podshoh bo‘lib qolsa, nima qilishini so‘raydi. Birinchi sayyoh agarki baxti kulib, shoh bo‘lib qolsa, yurtda insof-u adolat o‘rnatishini, odamlar nimayiki orzu qilsa, hammasini ro‘yobga chiqarishini aytadi. Ikkinchisi esa agarki podshoh bo‘lsa, bani odam atalmish jamiki nodonlarni tavbasiga tayantirishini, qashlashga tirnoq ham qoldirmay, kafangado qilishini aytadi. Falakning gardishi bilan ikkinchi sayyohning boshiga yaqinda o‘lgan shohning qari burguti qo‘nib bir zumda mamlakat egasiga aylanadi. Natijada o‘z niyatiga muvofiq qora xalqning boshiga behisob boj-u xiroj solib, hammasini kafangado qiladi. Birinchi sayyoh do‘stidan insof-u adolat kutib bunday nodonliklar qilmasligiga chorlaganida shoh aytadiki:

–Agar men bu odamlarga zulm qilgan bo‘lsam, gumrohligi va nodonligi uchun shunday qildim. Agar bular nodon bo‘lmasa, Xudoning alqsiz bir maxluqiga ishonib, kaminani taxtga ko‘tarishmas edi! Bealq maxluqqa inonib meni podshoh qilishgan ekan, rahm-shafqat ne darkor bularga? Dono podshoh donolarga loyiqdir. Nodonlarga nodon podshoh yarashur”.⁸ Savdoyi bog‘bon keltirgan bu rivoyat orqali u Mahmud G‘aznaviy siyosatini, uning saroy muhitini ramziy tasvirlab bergan.

Asarda Bobo Xurmo o‘zining “devonaligi” (savdoyiligi) orqali zolim hukmdorlar va davrning adolatsizliklariga o‘ziga xos tarzda qarshilik ko‘rsatuvchi, haqiqatni xalq tilidan aytuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U umrining so‘ngida zindon azoblariga dosh berolmay vafot etadi va xurmozori o‘rnida barpo etilgan bog‘ning bir burchagiga dafn etiladi.

Romanda kichik epizodik qismlarda ishtirok etgan mayxonadagi qalandarlar: Bobo Setoriy, Piri G‘ijjakiy, Bobo Hofiz Bulbuliylar ham yozuvchining badiiy xayolot mahsuli. Ularning nomlanishida ham ramziylik bor. Ya‘ni ular haqiqiy san‘atni hayotining mazmuniga aylantirgan. Shuning uchun ham oddiygina setorchi, g‘ijjakchi, naychi, shoir yoki hofiz emas, o‘z kasbining “pir”lari. Ammo shunday iqtidor egalarining ham joyi Malikul Sharobning mayxonasida, devonalar orasida. Ular jaholat botqog‘iga botgan yurtning ma‘naviy qurbonlaridir.

Umuman olganda, “Ko‘hna dunyo” romanida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘zaro uyg‘unlashib, yaxlit bir badiiy tizimni hosil qilgan. Tarixiy shaxslar obrazi orqali davrning real manzarasi tiklangan bo‘lsa, to‘qima obrazlar va sevgi syujetlari orqali bu manzara chuqurlashtirilgan, insoniy ruhiyat bilan boyitilgan. Natijada asar nafaqat tarixiy voqealarni aks ettiruvchi roman, balki inson, jamiyat va davr o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi falsafiy-badiiy asar sifatida namoyon bo‘ladi.

⁸ Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. –Toshkent: Sharq, 2008. B.13

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. – Toshkent: Sharq, 2008.
2. Халим Карим. Тарихий шахс ва бадиий образ. Қўлланма. Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2006
3. Mirvaliyev S. O‘zbek romani. – Toshkent: Fan, 1969.
4. <https://kh-davron.uz>
5. <https://natlib.uz>